

**IMOM AL-BUXORIY MAJMUASINING OCHILISHI – BUYUK AJDODLAR
MEROSIGA YUKSAK EHTIROM VA MA`NAVIY QADRIYATLARNING TIKLANISH
RAMZI.**

Ummatova Sevinch To'xtasin qizi

Guliston Davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Qudratov Davlatbek Turdibekovich

GulDU "tarix" kafedrasi dotsenti

Tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy nomi nafaqat islom olamida balki butun insoniyat ma'naviy hayotida muhim o`rin tutadi. Buyuk muhaddisning ilmiy merosi ayniqsa hadis ilmidagi beqiyos hissasi asrlar davomida o`z ahamiyatini haligacha yo`qotgan emas. Shu bois alloma xotirasini abadiylashtirish uning ilmiy merosini keng targ`ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shunday ezgu maqsadlar yo`lida barpo etilgan Imom al-Buxoriy majmuasining ochilishi mamlakatimizda muhim voqea bo`ldi. Ushbu majmua nafaqat ziyorat maskani, balki ilm –ma`rifat, ma`naviyat va tarix uy`g`unlashgan muqaddas markaz sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Majmua davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan buyuk o`rni va ulkan salohiyatiga munosib ravishda qaytadan bunyod etildi. Ushbu majmuada ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoitlar yaratildi. Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy majmuasining qaytadan tiklanishi tahlil qilinadi.*

Kalit so`zlar: *Imom al-Buxoriy majmua, maqbara, minora, masjid, hadis, me'morchilik, turizm, mehmonxona, ilmiy meros, yodgorlik, Samarqand, ziyoratgoh, islom, muhaddis.*

Musulmon olamining taniqli muhaddislaridan biri Imom al-Buxoriy 810 -yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan, 870 yilda Samarqanddan 25 km uzoqda joylashgan Xartang qishlog'ida (Samarqand viloyatining hozirgi Payariq tumani) vafot etgan va o'sha yerda dafn etilgan.

Biroq, bu joy asrlar davomida qarovsiz holatda qolgan edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, majmua qayta tiklandi. 1997- yilning 29-apelida O'zbekiston Respublikasi hukumatining "Imom al-Buxoriy tug'ilgan kunining hijriy-oy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash" to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Shu yilning noyabr oyida, YuNESKO ning bosh konferensiyasi 1998-yilda muhim sana olim Ismoil al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligining nishonlanishida qatnashish to'g'risida qaror qabul qiladi[1]. Shu munosabat bilan, Imom al-Buxoriyning maqbarasida O'rta Osiyoning me'moriy an'analariga ko'ra bajarilgan yodgorlik

majmuasi barpo etilgan edi. Majmuaning qurilishi va undagi obodonlashtirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida amalga oshirilgan. Majmua qurilishida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Qo'qon va Shahrisabzning xalq hunarmandlari va ishbilarmonlari qatnashdilar. Maqbara, masjid, ma'muriy bino va boshqalar milliy me'morchilik an'analari barpo etilgan. Imom al-Buxoriy majmuasining keng ko'lamli qayta qurish va rekonstruksiya qilish ishlari mamlakatimiz Rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021-yilda boshlangan edi. Zamonaviy talablarga javob beradigan yangilangan majmua 2026-yili mart oyida Ramazon hayitida foydalanishga topshirildi. Bu mamlakatimizda musulmonlar uchun uzoq kutilgan marosim bo'ldi.

Xususan, majmua qoshida turizm markazi ochildi. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo etildi. Jumladan, 1 ta 115 o'rinli to'rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli, 22 ta 176 o'rinli oilaviy mehmon uylari hamda avtoturargoh qurilgan. Mazkur obyektlar to'liq kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanib, hududida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Natijada Imom Buxoriy majmuasi ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, hozir kuniga 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega. Majmuaning o'zi Samarqandning, yangi O'zbekistonning durdonasi bo'lib qad rostladi. Uning maydoni 45 gektarni tashkil etadi. 10 ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, ma'muriyat binosi, 154 ustunli, milliy uslubdagi muhtasham ayvon qurildi. Ziyoratgohning qoq markazida Imom Buxoriy bobomizning tabarruk maqbarasi o'rin olgan. Majmua tarkibida eng ilg'or axborot texnologiyalari asosida 9 pavilyondan iborat noyob innovatsion muzey barpo etildi. U islom olamida muhaddislar sultoni deya e'tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzeyda Qur'oni karimda ismlari zikr qilingan 25 payg'ambar tarixi, Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayoti, hadislarning jamlanishi va yozilishi haqidagi ma'lumotlar joylashtirilgan. Qadamjoda 14 ta moviy gumbaz, 75 metrlik 4 ta minora unga ulug'vor qiyofa bag'ishlab turibdi. Davlatimiz rahbari turizm markazi va masjidida yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Ma'lumki, bir yarim ming yillik islom tarixini, ilm-ma'rifatini yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk olim-u ulamolarning nomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu kunlarda rasman ochilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ham bu haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi. Butun musulmon olamida hadis ilmi haqida gap ketsa, hech shubhasiz, bizning diyorimiz birinchilar qatorida tilga olinadi. Chunki Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk hadisshunos olimlar aynan mana shu zamin farzandlaridir. Xususan, Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" kitobi dunyoda tan olingan eng mo'tabar oltita hadis kitobining biridir. O'n yoshidan boshlab hadis ilmini o'rgangan alloma bobomiz 20 dan ortiq asar yozganlar. Ular to hanz din-u diyonatimizni mustahkamlash yo'lida islom ummatiga xizmat qilib kelmoqdalar. Prezidentimiz har gal Samarqandga kelganida majmuaning qurilish jarayoni bilan tanishib, bu joy faqat ziyorat emas, ilm-ma'rifat, tarbiya va ibrat maskani

bo'lishi, Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezgu namuna bo'lishi kerakligini ta'kidlagandi. – Ushbu betakror qurilish yangi O'zbekistonning ulkan imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ziyoratgoh xalqimiz uchun, jahondagi barcha musulmonlar uchun ezgulik va ma'rifat nurini taratadigan qutlug' maskanga aylanadi deb ishonaman. Aminmanki, bu dargohni ziyorat qilib, uning ma'naviy muhitidan bahramand bo'lgan inson, ayniqsa, yoshlar islom dinining asl ma'nosini anglab yetadi, to'g'ri yo'ldan adashmaydi, – dedi Prezidentimiz. Shuning uchun ham Imom Buxoriy majmuasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, uni chinakam tarbiya va ibrat maktabiga aylantirish, bu yerda imom-xatiblar, mahalla faollari uchun malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Xulosa ; Xulosa qilib aytganda ushbu majmua ning yutimiz fuqarolarining ma'naviy komilligiga, nafaqat mamlakatimizdagi turizmisohasiga ham juda katta ta'sirga ega. Xususan ziyorat turizmini rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Ushbu majmua bugungi kunda xalqaro miqyosda musulmon olami uchun eng muhim 5ta qadamjoldan biri sanalmoqda va bu ning natijasida mamlakatga kelayotgan xorijiy sayyohlar oqimi keskin oshishi kutilmoqda. Shu jumladan mehmonxonalar logistika va xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi ish o'rinlari yaratilib, mamlakatimizdagi ishsizlarni ish bilan ma'lum miqdorda ta'minlab ishsizlar sonining kamayishiga olib kelmoqda. Undagi ziyorat turizmi yil davomida barqaror sayyohlar oqimini taminlamoqda. Majmuaga buyuk muhaddis imom al-Buxoriy nomi bilan bog'liq bo'lganligi uchun dunyoning turli mamlakatlaridan musulmonlar ziyorat qilish uchun tashrif buyurishadi. Ko'plab sayyohlar tarixiy va diniy meros bilan tanishish uchun aynan shu joyni tanlashadi. Majmua orqali orqali O'zbekistonning boy tarixiy merosini dunyoga tanitiladi.

Majmua yoshlarimiz orasida xalqimizning diniy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. shuningdek yoshlarimizni tarixga hurmati va ajdodlarga ehtiromini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kun.uz/23534758>
2. [tps://daryo.uz/2018/07/24/samarqanddagi-imom-buxoriy-yodgorlik-majmua](https://daryo.uz/2018/07/24/samarqanddagi-imom-buxoriy-yodgorlik-majmua)
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/19/imom-buxoriy/>
4. <https://uza.uz>
5. <https://president.uz>
6. <https://www.muslim.uz/uz/e/post/9339-imom-buxoriy-majmuasi-tarixini-bilasizmi?>